

EKOLOGIYA SOHASIDAGI JINOYATLAR UCHUN BELGILANGAN JAZO TIZIMI HAMDA UNI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI

Akramova Marjona Oripovna

*Toshkent davlat yuridik universiteti 70420114-Jinoyat qonunchiligini qo'llash
nazariyasi va amaliyoti yo'nalishi magistranti*

Annotatsiya: *Ma'lumki, ekologik vaziyatning jiddiy tus olishi tobora umumjahon muammolardan biriga aylanib bormoqda. Buning asosiy sabablaridan biri inson va uning xo'jalik faoliyati bo'lishi bilan bir qatorda, ekologik huquqbuzarliklar, xususan, atrof-muhit muhofazasi sohasidagi jinoyatlar uchun belgilangan jazo choralarining yetarli emasligi ekanini inobatga ogan holda, mazkur maqolada ekologik jinoyatlar uchun nazarda tutilgan jazo tizimi, ushbu jazolarni tayinlashda vujudga keladigan muammolar hamda xorijiy mamlakatlarning ayrimlarida ekologik jinoyatlar uchun jazo tayinlash amaliyoti muhokama qilinadi.*

Kalit so'zlar: *jinoiy jazo, ekologik jinoyatlar, murakkab ayb uchun jazo tayinlash, ekologik xavfsizlik, jarima, muayyan huquqdan mahrum qilish, ozodlikni cheklash, ozodlikdan mahrum qilish.*

Аннотация: *Известно, что серьезность экологической ситуации все больше становится одной из глобальных проблем. Одной из основных причин этого является человек и его хозяйственная деятельность, принимая во внимание неадекватность мер наказания за экологические преступления, в частности, преступления в области охраны окружающей среды, системы наказания за экологические преступления, предусмотренной настоящей статьей. обсуждаются проблемы, возникающие при назначении этих наказаний, а также практика назначения наказаний за экологические преступления в некоторых зарубежных странах.*

Ключевые слова: *уголовное наказание, экологические преступленинаказание за составное преступление, экологическая безопасность, штраф, лишение отдельных прав, ограничение свободы, лишение свободы.*

Abstract: *It is known that the serious nature of the environmental situation is increasingly becoming one of the global problems. One of the main reasons for this is the human and his economic activity, as well as the inadequacy of punishment measures for environmental crimes, in particular, crimes in the field of environmental protection. the problems that arise in assigning these penalties and the practice of assigning penalties for environmental crimes in some foreign countries are discussed.*

Key words: *criminal punishment, environmental crimes, sentencing for a complex crime, environmental safety, fine, deprivation of certain rights, restriction of freedom, deprivation of freedom.*

KIRISH

So'nggi yillarda mamlakatimizda ekologik vaziyatni yaxshilash, ekologik xavfsizlikni ta'minlash, chiqindilarning insonlar sog'lig'iga zararli ta'sirini oldini olish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, sanitariya va ekologik holat sifatini oshirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda. Ammo hali-hanuz mamlakatimizda ekologik vaziyat barqaror, - deya olmaymiz. Xususan, hududlarda, ayniqsa, shaharlarda havo ifloslanishi bo'yicha holat tobora yomonlashib bormoqda, atmosferaga chiqariladigan tashlanmalarning yukini kamaytirish bo'yicha tizimli ishlar yo'lga qo'yilmagan, daraxtlar va butalarni kesilishiga e'lon qilingan moratoriy davrida 44 mingga yaqin, shundan 9,5 mingga yaqin qimmatbaho daraxtlar noqonuniy kesilishi natijasida tabiatga 36 milliard so'mlik zarar yetkazilgan, daraxtlarning ildiz tizimlarini beton va asfalt bilan qoplash, ularga turli elektr chiroq va reklama moslamalarini ilib qo'yish daraxtlarning jiddiy shikastlanishiga sabab bo'lmoqda¹.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, ekologiya sohasidagi jinoyatlar 2022-yilda 25 ta tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga kelib 46 taga o'sgan². Bu esa ekologik jinoyatlar uchun nazarda tutilgan jazo choralarning tom ma'noda yetarli va samarali emasligidan dalolat beradi. Har bir jinoyat uchun belgilangan jazo tizimining samaradorligiga erishish uchun, avvalambor, o'sha turdagi jinoyatlarning ijtimoiy xavflilik darajasini to'g'ri va har tomonlama aniqlash maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 42-moddasida jazo tushunchasi quyidagicha izohlangan:

“Jazo – jinoyat sodir etishda aybli deb topilgan shaxsga nisbatan davlat nomidan sud hukmi bilan qo'llanadigan va mahkumni qonunda nazarda tutilgan muayyan huquq va erkinliklardan mahrum qilish yoki ularni cheklashdan iborat majburlov chorasidir”³. Jazoning maqsadi esa mahkumning axloqan tuzalishiga, ularning kelgusidagi jinoiy faoliyatni davom ettirish uchun to'sqinlik qilishga, mahkumlar hamda boshqa shaxslar tomonidan yangi jinoyatlar sodir etilishining oldini olishga erishishda namoyon bo'ladi.

Shuningdek, akademik M.X.Rustambayev tomonidan jazo tizimi tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan: “Jazo tizimi ularning nisbiy og'irligini inobatga olgan holda, yengilidan og'iriga qarab qat'iy belgilangan tartibda joylashtirilgan, yagonaligi, o'zaro bog'langanligi hamda bir-birini to'ldirganligi bilan ajralib turadigan davlat majburlov choralari (tizim elementlari)ning tadrijiy va to'la-to'kis ro'yxatini tashkil etadi”⁴.

¹ “2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5863-son. 30.10.2019 <https://lex.uz/docs/-4574008>

² <http://stat.uz>.

³ O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi [2023-yil 1-sentabrgacha bo'lgan o'zgartirish va qo'shimchalari bilan] - T.: “Yuridik adabiyotlar publish”, 2023 y. - 23b.

⁴ Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Tom 2. Jazo haqida ta'limot. Darslik. 2-nashr, to'ldirilgan va qayta ishlangan. – T.: O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018. – 21bet.

O'zbekiston Respublikasi JK ning IV bo'limi, XIV bobida nazarda tutilgan ekologik jinoyatlar uchun belgilangan jazo tizimini quyidagilar tashkil etadi:

Jarima jinoyat sodir etishda aybdor deb topilgan shaxsga nisbatan sud tomonidan tayinlanadigan jinoiy javobgarlik chorasidir bo'lib, uning mulkiy manfaatlarini ma'lum darajada cheklash hisoblanadi.

Muayyan huquqdan mahrum qilish - bu aybdor shaxsning lavozimni egallashini taqiqlashni anglatadi. Bu sud tomonidan belgilangan muddatda korxonada, muassasa yoki tashkilotlarda har qanday faoliyat bilan shug'ullanishi man etiladi. Bunday lavozim yoki faoliyat turi sud tomonidan ayblov xulosasida ko'rsatiladi.

Axloq tuzatish ishlari - bu shaxsni ish haqining o'ndan o'ttiz foizigacha bo'lgan miqdorda majburiy ushlab qolish.

Ozodlikni cheklash sud tomonidan mahkumga nisbatan yashash joyini u yoki bu sabab bilan tark etishni butunlay taqiqlashdan yoki sutkaning muayyan vaqtida yashash joyidan chiqishni cheklashdan iborat.

Ozodlikdan mahrum qilish - mahkumni jamiyatdan ajratish va uni tartibli koloniyaga joylashtirish kabi jazolarning turli xildagi miqdori nazarda tutilgan⁵.

Mazkur turdagi jinoyatlar uchun belgilangan jazo tizimining qat'iy emasligiga guvoh bo'lgan holda, ayrim xorijiy mamlakatlarda ekologik jinoyatlar uchun qat'iy jazo tizimi ya'ni jarima yoki ozodlikdan mahrum qilish mavjudligini ta'kidlab o'tish lozimdir.

Ekologik jinoyatlar atrof-muhitga, salomatligimizga, shuningdek, iqtisodiyotimizga katta zarar yetkazadi. Jinoyatchilar juda uzoq vaqt davomida kuchsiz sanksiyalar va jazo muqarrar emasligidan foyda ko'rdi", — dedi Yevropa Ittifoqining atrof-muhit bo'yicha komissari Virjiniyus Sinkevichius erishilgan kelishuvlarni sharhlagan⁶.

Bizga ma'lumki, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida oxirgi yillarda atrof-muhitga qarshi jinoyatlar ro'yxatini kengaytirish va ularga nisbatan jazo choralari kuchaytirish nazarda tutilgan hujjatlar qabul qilishga e'tibor qaratildi. Ushbu mamlakatlardagi jiddiy ekologik huquqbuzarliklar qatoriga o'rmonlarni noqonuniy kesish natijasida olingan yog'ochning noqonuniy muomalasi, atrof-muhitga zararli mashina qismlarini noqonuniy utilizatsiya qilish, zararli kimyoviy moddalarni ishlatish va yo'q qilish qoidalarini buzish kiradi.

Yangi direktiva Yevropa Ittifoqining rasmiy jurnalida chop etilgandan keyin kuchga kirishi belgilangan. A'zo davlatlar buni milliy qonunchiligida mustahkamlab qo'yishi uchun ikki yil vaqt nazarda tutilgan. Og'ir jarimalar va qamoq jazolar ham joriy etilgan. "Yevropa Ittifoqi darajasida transchegaraviy jinoyatlarga qarshi kurashish, kelgusida ekologik jinoyatlarning oldini olish uchun

⁵ M.Usmonaliyev. jinoyat huquqi (Maxsus qism). Darslik. "Yangi asr avlodi". T.: - 2005.

⁶ <http://gazeta.uz>

izchil va to'xtatuvchi sanksiyalardan foydalanish vaqti keldi", deb ta'kidlagan Niderlandiya Yevroparlament deputati Antonius Manders. Uning qayd etishicha, yangi qonunchilikka ko'ra, korxonada atrof-muhit ifloslanishiga mas'ul bo'lgan rahbarlik lavozimini egallagan shaxslar korxonalar bilan teng javobgarlikka tortilishi mumkin.

Shuningdek, Yevropa davlatlarining ko'pchiligi (Germaniya, Finlandiya, Norvegiya, Fransiya)da ekologik jinoiy javobgarlikka nafaqat jismoniy shaxslar, balkim yuridik shaxslarning ham jinoiy javobgarligini belgilab beruvchi normalar kiritilgan.

Xususan, AQShda ekologik jinoiy javobgarlik federal va shtat darajalarida belgilangan bo'lib, korxonalar tabiatga zarar yetkazuvchi asosiy obyekt ekanligini inobatga oladigan bo'lsak, zararli chiqindilarni davlat idoralarini va jamoatchilikni xabardor qilmasdan tashlash bo'yicha korxonalar rahbarlariga 25 ming dollargacha jarima hamda uch yilgacha qamoq jazosi tayinlangan. AQShda qonunchilik ham jismoniy shaxslarni va ham yuridik shaxslarni jinoiy javobgarlik subyekti sifatida tan oladi. Yuridik shaxslar va ularning mas'ul xodimlari ham javobgarlikka tortilishi mumkin.

Xulosa

Har bir jinoyat uchun belgilangan jazo xususida shart bo'lgan qoidalardan biri bu jazoning ijtimoiy xavfli qilmish uchun mutanosibligidir. Shuni inobatga olgan holda, ekologik jinoyatlarning ijtimoiy xavfliligi yuqori ekanligini inobatga olsak, bu turdagi jinoyatlar uchun qonunchilikda nazarda tutilgan jazo tizimining qilmishga mutanosibligini tekshirish hamda ularni kuchaytirish maqsadga muvofiqdir.

JKning atrof tabiiy muhitni ifloslanganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni qasddan yashirish yoki buzib ko'rsatish (194-modda), atrof muhitning ifloslanishi oqibatlarini bartaraf etish choralarini ko'rmaslik (195-modda) va atrof-tabiiy muhitni ifloslantirish (196-modda) moddalarining birinchi qismi uchun belgilangan jazolar tizimiga bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilishni, shu bilan birgan, mazkur moddalarning ikkinchi qismida nazarda tutilgan ushbu qilmishlar natijasida odam o'limi kelib chiqishi uchun muayyan huquqdan mahrum qilingan holda besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosini belgilash orqali kuchaytirish taklif qilinadi.

Ekologiyaga katta xavf tug'diruvchi, atrof-muhitning ifloslanishiga sabab bo'luvchi subyektlardan biri – jismoniy shaxslar bilan bir qatorda xo'jalik yurituvchi subyektlar ekanligini inobatga oladigan bo'lsak, ularning ham ekologik jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlik masalasini hal etish, shuningdek, ular uchun "ekologik xavf tug'dirgan obyektning batamom tugatish" jinoiy jazosini joriy etish taklifi beriladi.

Bir so'z bilan aytganda, tabiatga muhabbat, undan to'g'ri va ongli ravishda foydalana bilishning asosi. Zero, insonning o'z-o'zini anglashi va atrof-muhitga ijobiy munosabatda bo'lishi tegishli bilim va ko'nikmalarga ega ekanligi hamda ekologik madaniyatining yuqoriligidan dalolatdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. “2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5863-son. 30.10.2019 <https://lex.uz/docs/-4574008>
2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi [2023-yil 1-sentabrgacha bo'lgan o'zgartirish va qo'shimchalari bilan] - T.: “Yuridik adabiyotlar publish”, 2023 y. - 23b.
3. Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Tom 2. Jazo haqida ta'limot. Darslik. 2-nashr, to'ldirilgan va qayta ishlangan. – T.: O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018. – 21bet.
4. Зубкова В.И. Уголовное наказание и его социальная роль: теория и практика. – М.: «НОРМА», 2002. – 304 Б.
5. M.Usmonaliyev. jinoyat huquqi (Maxsus qism). Darslik. “Yangi asr avlodi”. T.: - 2005.